

# OSHIQ QALB

**SHE'RIY TO'PLAM**



***Turdiqulov Kamronbek  
(Komron Mirzo)***



# OSHIQ QALB

SHE'RIY TO'PLAM

**Taqrizchi:**

*Nargizabonu Mamadaliyeva*

*Filolog*

**Muallifi:**

*Kamronbek Turdiqulov*

*Talaba*

2024



## Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc, even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

**Publisher:**

**JustFiction! Edition is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group.**

**120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe**

**Printed at: see lastpage**

**ISBN: 978-620-6-74812-0**

**Copyright© Kamronbek Turdiqulov**

**Copyright© 2024 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group**





***Turdiqulov Kamronbek Muzaffar o'g'li ( Komron Mirzo)***

***Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida 2001-yil 30-martda tavallud topgan. Ayni damda Termiz davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi. Serqirra ijodkor, shoir, hamda bo'lajak o'z kasbining ustasi. Ilk ijodiy ishlari 2016-yil "Sinf-dosh" va "Gulhan" jurnallarida chop etilgan. Ayni kunda "O'zbekistonda ta'lim", "Smile" jurnallarida, "Ezgulik", "Bekajon plus" gazetalarida ijod ishlari ommaga taqdim etilgan. Bundan tashqari O'zbekiston hamda Qozog'iston hamkorligida tashkil etilgan "Qo'shqanot" ijodiy guruhining, Toshkentda faoliyat olib borayotgan "Mushoira" klubing to'laqonli a'zosi. Online hamda an'anaviy o'tkaziladigan ijodiy tanlovlarda faol qatnashib faxrli o'rinlarni olib kelmoqda. Shu bilan birgalikda "Ilm fan-targ'ibotchisi" medali va "Xalqaro xizmatlari uchun" ko'krak nishoni sohibi. O'ndan ortiq antologiya va almanax ijodiy ishlar to'plamiga she'rlari kiritilgan.***



## JAMOLING SOG‘INDI BU YURAK...

Tosh yog‘sa yomg‘irmas osmondan,  
Sog‘inchlar to‘ydirsa shu jondan.  
Topolmay Qarshi-yu Surxondan,  
Jamoling sog‘indi bu yurak...

Dardimni tinglaydi ohular,  
Nurdayin chorlaydi yog‘dular.  
Qilsang ham afsun-u jodular,  
Jamoling sog‘indi bu yurak...

Kulgular bo‘ldida begona,  
Ishqimsan men uchun yagona.  
Aqlimdan etding-ku devona,  
Jamoling sog‘indi bu yurak...

Dardlarim sig‘masa olamga,  
Yorilgim kelmaydi onamga.  
Cho‘ksamki tubi yo alamga,  
Jamoling sog‘indi bu yurak...

Ko‘zlaring sezmaydi sevganim,  
Hajringda olovda kuyganim,  
Oh, mening eng yaxshi ko‘rganim,  
Jamoling sog‘indi bu yurak...

Taratding ko‘nglimga ziyoni,  
Tor aylab qo‘yding-ku dunyoni.  
Qiyname oshig‘ing Mirzoni,  
Jamoling sog‘indi bu yurak...

Visoling qumsaydi bu yurak....



## KO'NGLIMNING KO'NGLIDAN QOLIB KETGANSIZ

Xayollarim xayoldan olib ketgansiz,  
Sevib turib, sevgimdan tonib ketgansiz.  
Xiyonat-u jafoga qonib ketgansiz,  
Ko'nglimning ko'nglidan qolib ketgansiz.

Qo'llarim yetmayin bo'lgansiz sarob,  
Tutolmay bo'lganda holatim xarob.  
Sevgidan mast bo'lib ichganda sharob,  
Ko'nglimning ko'nglidan qolib ketgansiz.

Nomalar bitarman yetib bormasdan,  
Azobli kunlarim o'tib bormasdan.  
Ko'zimda yoshlarim qotib qolmasdan,  
Ko'nglimning ko'nglidan qolib ketgansiz.

Ovozsiz yig'layman darddan kulaman,  
Dardlarim davosi sizensiz bilaman.  
Sevgisiz hayotda ne ham qilaman,  
Ko'nglimning ko'nglidan qolib ketgansiz.

Bunchalar bo'lmasa va'dalar yolg'on,  
Qilgansiz yurakni paykonga nishon.  
Nomingiz aytmoqqa or qilar zabon,  
Ko'nglimning ko'nglidan qolib ketgansiz.

Afsus umr o'tar sarob ro'yoda,  
Mehringiz kutgandim bir kam dunyoda.  
Qasdingiz bormidi, ayting Mirzoda?  
Ko'nglimning ko'nglidan qolib ketgansiz.



## SENSIZ QANDOQ YASHAYMAN...

Kelgin seni zor kutdim,  
Sog'inganga o'xshayman.  
Har lahza hijron yutdim,  
Sensiz qandoq yashayman?

Sensiz zimiston kunim,  
Zulmat ichra qaqshayman.  
Dardimga bo'lg'in malham,  
Men bemorga o'xshayman.

Yillar ko'rmay yuzingni,  
Olguvchi jon ko'zingni.  
Totli shirin so'zingni,  
Sog'indim, ko'p qumsayman.

Bu dunyoda armonim,  
Bo'ldingmi menga jonim.  
Yolg'izim mehribonim,  
Sensiz qandoq yashayman?

Sog'inch sarhadin buzib,  
Visoldan lashkar tuzib.  
Yuragim ketma uzib,  
Men o'lganga o'xshayman.

Sen bo'lding menga armon,  
Sevgimiz zor-u hayron.  
Qalbimni etding vayron,  
Endi bejon yashayman.



Ko'p kuyinma sen Mirzo,  
Omading berar Xudo.  
Bo'lma o'zingdan judo,  
Men Majnunga o'xshayman.

### **SEVGANDA SEVGIMGA ARZIMAGANLAR**

Mehrimni bergandim, mahrum etdilar,  
Xiyonat jariga tashlab ketdilar.  
O'lmasimdan avval kafan bichdilar,  
Sevganda sevgimga arzimaganlar.

Yetganida titroq qo'llarim oshga,  
Omadim qo'nib turganda bu boshga.  
Niqoblanib olishdi, yuzlar boshqa,  
Sevganda sevgimga arzimaganlar.

Bu dunyoni derlar, qaytuvchi dunyo,  
Har kimni o'z kuyin aytguvchi dunyo.  
Sevganni sevmagan yutguvchi dunyo,  
Sevganda sevgimga arzimaganlar.

Nonin yeb, nomim bulg'aydi, eh mudom.  
Yuragim yurakdan yig'laydi mudom.  
O'zingizni asrang ulardan Mirzom,  
Sevganda sevgimga arzimaganlar.



## HAYOT EKANDA...

Sadoqat topmadim sevganlarimdan,  
Oshqlik ridosin yechaman endi!  
Muhabbat topolmay sevganlarimdan,  
Yuragim, yuraksiz, netaman endi!

Yig'lasam ko'zda yosh bo'lsa, shashqator,  
Chorasiz qolganda xasta-yu abgor.  
Holimni so'ramas, o'sha umidvor,  
Dardlarim ichimga yutaman endi!

Dunyoni so'ramam, yoki ehtirom,  
So'rmadim, ulardan qasos, intiqom.  
Izladim arzimas shirin bir kalom,  
Xayrlar, vidolar kutaman endi!

Bandamiz ba'zida bo'lamiz bemor,  
Tunlari azobda uyqusiz bedor.  
Ey Mirzo, dilingda qolmasin g'ubor,  
Dardlarim daftarga bitaman endi!



## **SEN MENI MENDEK SEVA OLASANMI?**

Seni sevsam, aytchi seva olasanmi?

Hayotimda yolg'izim bo'lolasanmi?

Mehr bo'lib qalbinga to'lolasanmi?

Aytgil gulim roosting ayta olasanmi?

Muhabbat neligin, sen suygandan so'ra,

Yor hajrida olovdek kuygandan so'ra.

Oshiqlik, shoh ridosin yechgandan so'ra,

Dunyoda sevgimdek qola olasanmi?

Gohi g'amga botarman, gohida shodon

Tashvishlar qo'ymasa, hech holimga hamon

Yonimda sen bo'lsang, siylar bizni Rahmon

Yodimga o'zligim sola olasanmi?

Raqiblarim ranjitsa, tuhmat tosh ila,

Yaqinlarim yuz bursa, ko'zda yosh ila.

Sevib senla qursam, eng baxtli oila,

Qiyomatda kafilim bo'lolasanmi?


Bulutlarga to'lsa gar, ko'm ko'k osmonim,

Kulba bo'lsa hamki gar, yotar makonim.

Senga yetmay qolsa gar, cheksiz imkonim,

Aytchi jonim, aytgil seva olasanmi?





Muhabbat sehridan mast bo‘lganimda,  
Dunyoning nazdida xas bo‘lganimda.  
Bugunmi ertami rost o‘lganimda,  
Qabrim uzra tilovat qilolasanmi?

Shukurki hozircha bu yuragim urar,  
Qad-u kamoling, ojiz ko‘zlarim ko‘rar.  
Men emas, sendan xasta yuragim so‘rar,  
Yuragim o‘rnida ura olasanmi?

Ey Mirzo, g‘amni qo‘ygil, ortingga tasha,  
Bu hayotdan zavqlanib, quvonib yasha.  
Muhabbat o‘zgarmasdir, o‘shadir o‘sha,  
Umringda kimnidir seva olasanmi?!

Faqat rostin so‘yla, iltimos  
O‘zi hech...  
Umringda kimnidir seva olasanmi?...





## RASHKCHI QIZLARNI SEVMAYMAN ENDI...

E, bo‘ldi bas, hech sevmayman endi,  
Dil berib men, hech kuymayman endi.  
Rashkning azobi pora qildi qalb,  
Rashkchi qizlarni sevmayman endi.


Ne kerak asli, sevgi degani?  
Hijronlar azobi, dard degani!  
Ishonchsiz bo‘lsa, bu ishq degani,  
Qalbidan ishqni yaxshi ketgani.

Charchadim men to‘g‘risi baridan,  
Iltimos ket, yuragim qaridan.  
Savollaring bema‘no berilgan,  
Ishonch qasrin yasadim sabrdan.

Jonga tegdi bari savollaring,  
O‘rinsiz rashk-u, ul sitamlaring.  
Nahotki, bu sevgimiz tush bo‘lsa,  
Yolg‘on bo‘lsa, seni va‘dalaring.

Suygandim, sevgim, faqat bir seni,  
Qizg‘anish meni— jonimdan to‘ydirdi.  
Oshiqman gar qalbingga, ey sanam,  
Yuragim qon yig‘ladi, jim ko‘ndi.






Sevgimning qadrin sen hech bilmading,  
Nechun oshig‘ing buncha sinading.  
Bo‘ldi bas! Sitamlaring charchatdi,  
Sen mening chin ishqimni bilmading.

“Ishqingiz samimiy sizning”,— derding,  
Kulib turib, bu jonimni yeding,  
Menga-chi ishqim bo‘lib sen kelding,  
Va yuragimni pichoqsiz tilding.

Jafolar jabridan sinmasin yurak,  
Sevgilim qalbimga faqat sen kerak.  
Ishongin, sevgim chin va haqiqiy  
Seni deb urmasa, yurakmas yurak!

E, bo‘ldi bas, hech sevmayman endi,  
Dil berib men, hech kuymayman endi.  
Rashking azobi pora qildi qalb,  
Rashkchi qizlarni sevmayman endi.





## KUYGAN YURAK

Qancha bo'lsin hijronning tuni?  
Topgum nasib visoling nuri.  
Sensiz, jonim topmas halovat,  
Sen qalbimning farishta, huri.

O'rtamizda masofa olis,  
Taqdirimdan emas, bu nolish.  
Ammo sensiz yashaganimga,  
Hanuzgacha etarman xonish.

Yuragim yuragida vasling,  
Kuylar doim nigohim husning.  
Seni men, gar bir kun ko'rmasam,  
Ko'ngil qurg'ur topolmas taskin.

Mirzo, yurak berib kuygandi,  
Ishon seni jondan sevgandi.  
Bu dunyoga kelmasdan turib,  
Seni shunday sevib bo'lgandi.



## YETAR BO‘LDI, AZOBLAR

Yetar bo‘ldi, azoblar,  
Qiynoqlaring yo‘qolsin.  
Seni sevsam, sevmasang  
Husning boshingda qolsin.

Yurak yutib tutsam gul,  
Qo‘ldan olmasang uni.  
Unutaman ho‘p butkul.  
Mehr degan tuyg‘uni.

Balki ilinjing beklar,  
Orzusi osmon-ko‘klar.  
Etgin hadya-yu nisor,  
Borligin hamda yo‘qlar.

Mirzo seni sevgandi,  
Sira parvo qilmading.  
Yoding bilan yashadi,  
Hurmating sen bilmading.





## ISHONGANIM


Va'da bergan edi, bunga oylar guvoh,  
Oqib o'tgan anhor, yana soylar guvoh.  
Yolg'iz bo'lgan o'sha tun-u joylar guvoh,  
Guvohlarim sira inkor etolmaydi.  
Tashlab mani, uzoqlarga ketolmaydi.

Qo'llaridan tutib, asta ushlaganim,  
Nozikkina ko'ngilchasin xushlaganim.  
Bo'sa olib, lablaridan tishlaganim,  
O'zi bilar birovlariga aytolmaydi.  
Mani tashlab, olislarga ketolmaydi.

To tongacha bedor bo'lib yurganlarim,  
Soy bo'yida sarhushdayin turganlarim.  
Ko'ngil qo'yib, ozorida kuyganlarim,  
Ishonaman shul damlarni unutmaydi.  
Tashlab mani, o'zga yorla u ketmaydi.

Turar edik bomdod yaqin azoniga,  
Uchramadik muhabbatning arzoniga.  
Tashlab ketmas hijronlarning qozoniga,  
Mansiz biron kun hamki o'tolmaydi.  
Ishonaman, mansiz bir kun yasholmaydi.





Ishonganim yuzlarida nurlari bor,  
Qolib ketgan munchoq, yana durlari bor.  
Kuni kelib dunyolari bo‘lganida tor,  
Ko‘nglim to‘qdir, mani tashlab ketolmaydi.  
Mansiz uzoqlarga yeta olmaydi.

Sog‘inganda, suratiga termulaman,  
Hijronlardan sog‘inar u ham, bilaman.  
O‘zligimni unutgandim, shul kuniman,  
Nima bo‘lsa hamki, endi etolmaydi.  
Olislarga hech ham tashlab ketolmaydi.

Ko‘rmasam kunda, ming bor sog‘inaman,  
Faqat uning yodi bilan ovunaman.  
Mirzo aytchi, bu go‘zalsiz na qilaman?  
Jon bo‘lmasa, tanim orom ololmaydi.  
Ishonaman mani tashlab ketolmaydi.





## SOG'INAMAN

Dilim ozor chekganida xiyonatdan,  
Tanim qaqshab, qolganida jinoyatdan.  
Darig' tutsa, sevganlarim inoyatdan,  
Shirin, ajib tuyg'ularni sog'inaman.

Yuragimdan ketkazolmay bitta dardni,  
Topolmasam, olam ichra do'st-u mardni.  
Takror-takror o'qib yolg'iz "Shaytanat"ni,  
Sizlarga ho'p, muhabbatni sog'inaman.

Dilim to'la mehr birla muhabbatga,  
Ishqim sig'mas, bitay desam bitta baytga.  
Gohi qo'yib sog'inchimni qiyomatga,  
Men sizlarga ezgulikni sog'inaman.

Bo'lsa hamki ismim Mirzo, ishqda gado,  
Sevmoq uchun bo'lsa edi, jonim fido.  
Ki mahsharda oson etsa, qodir Xudo,  
Men sizlarga cheksiz savob sog'inaman.



## KUMUSHIM, MENING KUMUSHIM

Qizlar ichra bir saylaganim,  
Yorim deya, sen tanlaganim.  
Faqatgina bir sen o‘ylaganim,  
Kumushim, mening Kumushim.

Qoshlar ham qayrilma, qiyiq qosh,  
Sen deya to‘kdim necha ko‘z yosh.  
Chiroyingga aylandi bosh,  
Kumushim, mening Kumushim.

Suluvlar ichra tanho suluvsan,  
Ko‘kdagi yorqin bir yulduzsan.  
Oshig‘ing uchun sen orzusan,  
Kumushim, mening Kumushim.

Bas menga boshqa berma ozor,  
Yuragimni qilding-ku mozor.  
Kel endi menga bo‘lgin yor,  
Kumushim, mening Kumushim.

Senla baxtli oila quraylik,  
Davr-u davronlar suraylik.  
Doim quvonib yuraylik,  
Kumushim, mening Kumushim.



## QANI ENDI YONIMDA BO‘LSANG

Qani endi yonimda bo‘lsang,  
Qo‘llaringdan tutib olardim.  
Mayin kelgan sabo misoli,  
Yuzlaringdan o‘pib olardim.

Qani endi yonimda bo‘lsang,  
Dunyoda eng baxtli bo‘lardim.  
Jamolingni ko‘rmoqlik uchun,  
Soya kabi senla qolardim.

Nafas bo‘lsam, yutib yuborsang,  
Nozik hisim turtib yuborsang.  
Xayolingdan o‘tayotganimda,  
“Ketma jonim”, — deya yuborsang.

Qani endi yodingda bo‘lsam,  
Gohi quvonch shodlikka to‘lsam.  
Ming bor o‘lib, ming bor tirilsam,  
Mirzo bo‘lib, shartingga ko‘nsam.



## XAYOLLARDA SUZGIM KELADI

Musaffo keng osmonga boqib,  
Ko‘zlaringni ko‘rgim keladi.  
Telba toshqin ummonga boqib,  
Xayollarda suzgim keladi.

Bitilmagan qancha nomalar,  
Tug‘ilmagan cheksiz g‘oyalar.  
Aytib senga she‘r hikoyalar,  
So‘zlardan dur tizgim keladi.

Qaytar bo‘lsam shirin o‘tmishga,  
Bandi bo‘lib qolgayman hisga.  
Bir so‘z bilan aytganda qisqa,  
Xayollaring buzgum keladi.

Ishqing birla o‘rtanib, yonib,  
Seni shunday sevib qizg‘onib.  
O‘zim emas, senga ishonib,  
Suratingni chizgim keladi.

Xasta yurak etganda isyon,  
Dilim zada qilganda tug‘yon.  
Chiqmasa gar, tanam uzra jon,  
Jisming ichra suzgim keladi.



## KO‘ZLARINGDA KO‘RDIM O‘ZIMNI

Oh, shunchalar afsungarmisan,  
Aytolmadim dildan so‘zimni.  
Aytgil tengsiz sehgarmisan,  
Ko‘zlaringda ko‘rdim o‘zimni.

Anhorlardan so‘radim seni,  
Tashna bo‘lib bo‘salarindingan.  
Ne kuylarga solding meni sen?  
Ko‘zlaringda ko‘rdim o‘zimni.

Shamollardan so‘radim behol,  
Zulflaringni o‘ynatganmi deb.  
Qiyinar jismim sinoat savol,  
Ko‘zlaringda ko‘rdim o‘zimni.

Dudog‘ingni bolidan zarra bo‘lsa berib ket,  
Sensiz jonim betobman, bir yo‘qlagin ko‘rib ket.  
Men yig‘layin bezabon, jilmayib sen kulib ket,  
Ko‘zlaringda ko‘rganim ishonmasang, ko‘rib ket.

Yuzlaringga boqib olisdan,  
Sevganligim olib bo‘ldim tan.  
Ko‘ksing erur Mirzoga maskan,  
Ko‘zlaringda ko‘rdim o‘zimni.



## SEVGI XUMOR SAYLIMI

Shundayin sen parivash,  
Husningdan oylar talash.  
Visolingga bo‘lib mast,  
Menga o‘zga kerakmas.

Yuzingdan bir o‘polmay,  
Qo‘llaringdan tutolmay.  
She‘rimni ham bitolmay,  
Qalam qo‘lga ushlolmay.

Bazo‘r chidab turibman,  
O‘zimsizman yuribman.  
Seni yaxshi ko‘ribman,  
“Yagonam” deb suyibman.

Nima deysan ayt gulim?  
Faqat sendadur ko‘nglim.  
Aytchi ko‘ngling, turma, jim!  
Yoki bormi biron kim?

Bilmam zamon zaylimi?  
Sevgim ishq tufaylimi?  
Sevib qolsam maylimi?  
Sevgi xumor saylimi?

Orzu bo‘lmasin armon,  
Holimni etma yomon.  
Mirzo sevar begumon,  
Rostdir so‘zim, sen ishon.



## SENI SEVIB QOLDIMMI DEYMAN?!

Yuragimda hislar chunonam,  
Sog'inib ko'p seni yomonam.  
Bunga guvoh endi zamonam,  
Seni sevib qoldimmi deyman?!

Nozikkina barmoqlaringni,  
Bergan shirin qiynoqlaringni.  
Jondan o'tgan firoqlaringni,  
Seni sevib qoldimmi deyman?!

Tushlarimda bellaring quchib,  
Xayolimda osmonga uchib.  
Uyg'onibman yerlarga tushib,  
Seni sevib qoldimmi deyman?!

Mirzo seni sevib toabad,  
Quchib jisming, etadi rag'bat.  
Sevgi erur ilohiy hikmat,  
Seni sevib qoldimmi deyman?!





## G‘ARIBMIZ ISHQ TUFAYLI

Tel qilingda telimga,  
Tushinmaysiz fe’limga.  
Garchi sizni yeb qo‘ygum,  
Tushsangiz gar qo‘limga.

Sizni mahkam quchoqlab,  
Mehringizdan yurak ohlab.  
Ishoning siz bir kuni,  
Qo‘yarsiz sochga bog‘lab.

Labingizdagi bol totli,  
Siz juda marhamatli.  
Jonim, buncha noz etmang,  
G‘aribmiz ishq tufayli.

Afv eting, hazil yo‘ying,  
Sevgimdan masrur tuying.  
Qolgan barcha mehringiz,  
Mirzoga atab qo‘ying.





## YIG'LAMA YURAGIM, YIG'LAMA ASLO!!!

Yig'lama yuragim, bu qaytar dunyo,  
Har kimki o'z ishin topadi go'yo.  
Ishonching bo'lmasa, hayoting ro'yo,  
Yig'lama yuragim, yig'lama aslo!!!

Sevgidan tamagir pul undirsa ham,  
Qalbingni nimtalab, ko'p sindirsa ham.  
Mehrdan minnatli gul undirsa ham,  
Yig'lama yuragim, yig'lama aslo!!!

Jabrlar torting-a nafsim tufayli,  
Chidagin biroz sen, chidagin mayli.  
Kelib qolar balki, qiyomat sayli,  
Yig'lama yuragim, yig'lama aslo!!!

Ko'zlarim basirdir, aslo ochilmas,  
Qalbimdan, mehrlil ifor sochilmas.  
Na qilay?, yuragim o'zim uchunmas,  
Yig'lama yuragim, yig'lama aslo!!!

Gadoylar eshigim tinmay qoqmoqda,  
Yolg'onlar ichimda toshqin oqmoqda.  
Termilib ko'zimga, jonim yoqmoqda,  
Yig'lama yuragim, yig'lama aslo!!!



Dardimni aytsam hatto do'stim kular,  
Ey yoronlar! Do'stmi, ayting-chi shular?  
Tarixda qolibdimi O'TGAN KUNLAR?  
Yig'lama yuragim, yig'lama aslo!!!

Hali kunlar kelar, biz ham kulamiz,  
Kimlar-u dushmandir, kim do'st bilamiz.  
Allohim guvohtir, mahshar kutamiz!  
Yig'lama yuragim, yig'lama aslo!!!

Maylida kel yurak, birga yig'laymiz,  
Dunyoning armon-u tashvishlaridan  
Ko'ngilni endi biz toshga bog'laymiz,  
Qo'l siltab insonning, bad ishlaridan...

O'kinib tingladim dil nidosini,  
Hali hanuz izlarman ishq davosini!!!



## SEVMOQLIKNI O'RGATIB QO'YGIL...

Seni sevmoq saodatligim,  
Sevilmoqni o'rgatib qo'ygil.  
Erkalanib ko'ksingda boshim,  
Uhlab qolsam, uyg'otib qo'ygil.

Makkor dunyo azoblaridan,  
Tinmay cheksam ozor-u sitam.  
Bellaringdan ushlasam mahkam,  
Tutganimda to'xtatib qo'ygil.

Tentak qo'lim tortsa sen tomon,  
Hislarimga berilsam tamom.  
Bo'lib qolsa avzoyim yomon,  
Isyon etsa uxlatib qo'ygil.

Guldan nozik farishta misol,  
Osiydurman senla ehtimol.  
Bo'salarim kelsa gar malol,  
Lablarimni muzlatib qo'ygil.

Taning yonsa, kuydirib qalbim,  
Sukut olsak, sukunatdan jim.  
Senga bo'lsa oshkora ishqim,  
Ko'nglim biroz xushlatib qo'ygil.

Telba Mirzo aqling kirmadi,  
Ayt-chi nedan baxting kulmadi?  
Sevgan yoring seni sevmadi,  
Aqlingni sen ishlatib qo'ygil.



## SOG'INDIM...

Yo'llaringda nigoron ko'zim,  
Yolg'oni yo'q, behazil so'zim.  
Dunyodagi hammadan o'zim,  
Ishon! Seni cheksiz sog'indim.

Sog'inaman, ko'rolmasman lek,  
Hijron g'ajir, quturgan itdek.  
Mushtoq bo'ldim, senga bir quldek,  
Mirzo bo'lib, ming bor sog'indim.

Qilgin rahm, etmagin jabr,  
Tugab bitdi asab-u sabr.  
Man ham odam, inson axir,  
Tushin! Seni yomon sog'indim.

Na qo'ng'iroq qilasan o'zing,  
Sevishingni aytolmas so'zing.  
Ayt, mendan qanday qiyar ko'zing,  
Seni juda, juda sog'indim!!!

SOG'INDIM, JUDA HAM SOG'INDIM...

ISHONAMAN! SEN HAM SOG'INGANSAN.



## TO‘YIMNING ILK KECHASI..

### Nasib in Sha Alloh

Orzularim armonmi?  
Orzu qilgan yomonmi?  
Jonim qiynab, azobda  
Sevganing yo gumonmi?

Seni sevdim erkalab,  
Jonim joningga bog‘lab.  
Kelgin endi sog‘indim,  
Olay mahkam quchoqlab.


Qiynab, rosa hijronda,  
Tun kechalar azobda.  
Chiqay endi xumordan,  
Hozirgina shu onda.

Bugun visol oqshomi,  
Sipqoray ishqning jomi.  
Lablaringdan bol olib,  
Topdim asalning koni.

Labing asalmi, jisming?  
Aqlim olguvchi husning.  
Bilmam, tortadur nega?  
Sehrli ohu ko‘zing.








Ko‘z uzolmay hayrona,  
Bo‘ldim behush devona.  
Asta belingdan tutsam,  
Qochma jonim bir bora.

Sen qalbimga malika,  
Olamim ichra erka.  
Bir umr bo‘l yonimda,  
Qalbimga tanho beka.

Qildi g‘anim ig‘volar,  
Yomon otlig‘ rasvolar.  
To‘yimizga fatvolar,  
Berur shayxu-mirzolar.

Mana muhr nikohga,  
Qodir Alloh rizosi.  
Hojat yo hech guvohga,  
Man MIRZOLAR MIRZOSI!  
Oxir erishdim senga.





## O'ZINGGA YETMAYDI, O'ZGACHASAN-DA...

Sochlaring oynaga termulib tarab,  
Nigohing qo'yasan yurakka tirab.  
Sinovlar bo'ldimi boshimga, yo rab,  
O'zingga yetmaydi, o'zgachasan-da.

Yodingdami, jonim, uchrashganimiz,  
Hayajon olgandi qamrab tanimiz,  
Sog'inchdan o'rtanib horg'in yurganimiz,  
O'zingga yetmaydi, o'zgachasan-da.

Astagina tutsam nozik qo'llaring,  
Aylanmay qolardi so'zga tillaring,  
Eslaysanmi endi baxtli kunlaring,  
O'zingga yetmaydi, o'zgachasan-da.

Baxtimdan mast bo'lib, bo'sa olganim,  
Yuragimdan yurakka rishta solganim,  
Araz etib, arazlab ketib qolganing,  
O'zingga yetmaydi, o'zgachasan-da.

Uchrashsak hayodan iymanib asta,  
Ro'mol ila yopib yuzing bir pastda,  
Qizg'onma jamoling bunaqamas-da,  
O'zingga yetmaydi, o'zgachasan-da

Yuborsam sovchilar koshonang tomon,  
Bermagin baholar xulqimga yomon,  
Tutolmay qoldimda o'zimni ishon,  
O'zingga yetmaydi, o'zgachasan-da.

Baribir bilaman ko'ngling mandadur,  
Sevgimiz isboti o'tgan kundadur,  
Alishsang Mirzoni bilmam kimgadur,  
O'zingga yetmaydi, o'zgachasan-da.



## CHIN MUHABBAT

Ayting do'stlar dunyoda,  
Chin muhabbat bormikan?  
Nozik tuyg'u hamisha  
Oyoq osti xormikan?

Ayting kelmasa malol,  
Ochiq rostin bemalol.  
Muhabbat asli nima?  
Fidolikdur ehtimol!

Yaratganni sevisht bu,  
Ya'ni o'zligin topmoq.  
Abadiyatda mangu,  
Yod-u xotirda bo'lmoq.

Sevsang, sevgin mayli,  
Yaratgan zot tufayli.  
Zinhor qilmagin tama,  
Oddiy gul ham aytayli.

Kimni sevsang, dildan sev,  
Riyo uchun bo'lmasin.  
Rosti bilan chindan sev,  
Qalbdagi gumon qolmasin.

Ayting do'stlar dunyoda?  
Chin oshiqlar bormikan?  
Telbasifat Mirzoda  
Yoki yurak tormikan?



## **BAXT QASRINI BIRGA QURAYLIK**

Kel xotirjam dunyolarida,  
Quvonch yana baxtga to'laylik.  
Parvo qilma g'animga aslo,  
Baxt qasrini birga quraylik.

Yig'lamagil yurgin baxtiyor,  
Yuraklarda birga uraylik.  
Ranjitsa ham vafosiz dildor,  
Hayot gashtin masrur suraylik.

Gulim kelgin, boshimda tutay,  
Baxtni birga baham ko'raylik.  
Yetganda ham yuz yoshga bizlar,  
Shodon, masrur kulib turaylik.

Mayli desin ko'rishgan yoshlar,  
Quyilmagan telba oshiqlar.  
Ortimizdan otsa ham toshlar,  
Baxt qasrida birga yashaylik.





## ORZULARIM ARMON BO‘LMASIN

Jonim quchib seni erkalay,  
Mayin sochlaring kel bir silay.  
Bo‘ylaringdan o‘zim o‘rgilay,  
Orzularim armon bo‘lmasin.  
Faqat sendan o‘zga bilmasin.


Tunda kelgin asta yonimga,  
Bilgan o‘sha sen makonimga.  
Tashna etma bejon holimga.  
Orzularim armon bo‘lmasin,  
Buni sendan o‘zga bilmasin.

Tunda oylik osmon ostida,  
Birdan bebosh xayol qochdida.  
O‘pgim keldi gapni rostida,  
Orzularim armon bo‘lmasin,  
Faqat sendan o‘zga bilmasin.

Taqib olgan munchoqlaringdan,  
Ko‘z olguvchi baldoqlaringdan.  
Bol olsaydim dudoqlaringdan.  
Orzularim armon bo‘lmasin,  
Buni sendan o‘zga bilmasin.







Ishon seni aldamoq gunoh,  
Ilojsizman bosadi titroq.  
Jonga tegdi jafo-yu firoq.  
Orzularim armon bo‘lmasin,  
Faqat sendan o‘zga bilmasin.

Mayli borar elchi ertaga,  
Etmagin noz atay jo‘rtaga.  
Tushishmasin opang o‘rtaga.  
Orzularim armon bo‘lmasin,  
Mirzologim hech kim bilmasin.





## ISHQINGNI BILDIMU, ISMING BILMADIM!

Oymisan, gulmisan yoki begoyim,  
Xushsurat etibdi seni Xudoyim.  
Husningga tegmasin, ko‘zlar iloyim,  
Ishqingni bildimu, isming bilmadim.

Charaqlab chiqqanday kabi go‘yo kun,  
Bir boqib, aylading o‘zingga maftun.  
Mehrning qasriga qo‘yib bir ustun,  
Ishqingni bildimu, isming bilmadim.

Jilmayib o‘tarsan, goho shodon-a,  
Beparvo ketarsan etib devona.  
Ko‘zlaring sevgidan berur nishona,  
Ishqingni bildimu, isming bilmadim.

Oymisan, gulmisan yoki go‘zalxon,  
Zor etma bunchalar xurshidi tobon.  
Ismingni bilishni istar Mirzojon,  
Ishqingni bildimu, isming bilmadim.



## SENI SOG‘INDIM GULIM

Sevgim etsada xumor,  
Aylansa boshim takror.  
Ishonsang men beg‘ubor,  
Bolalikni sog‘indim!

Anhor bo‘yi kunduzi,  
Sabolar o‘pgan izi.  
Sen o‘sha boyning qizi,  
Soy bo‘ylarin sog‘indim!

Bo‘sa oldim ilk sendan,  
Asta yuzing yashirding.  
Mast bo‘lgandim men chindan,  
Bo‘salarni sog‘indim!

Labingga tegsa labim,  
Iymanarding asta jim.  
Xalal bermasdi hech kim,  
Shu kunlarni sog‘indim!

Tushirmas noming tilim,  
Yurakka yaqin gulim.  
Yolg‘onimsan sen chinim,  
Beboshligim sog‘indim!

Va‘da berding tegmading,  
Bilmam aybim sevmading.  
Shuncha kutdim kelmading,  
Hijronlaring sog‘indim!



Mirzo sig‘mas dunyoga,  
Dardin aytib daryoga.  
Bor tavakkal Allohga  
Visolingni sog‘indim!!!

### E'TIROZ...

Ko‘nglimni og‘ritding, xafaman sendan,  
Bilmam aybim nedur, ne o‘tdi mendan?  
Shunchalar bu nozik bag‘ring toshmidi?  
Va‘dalaring to‘ydirdi meni rostdan.

Kimlargadir meni tenglashtiribsan,  
G‘ururim osmondir, engashtiribsan.  
Nima qilay aytgin, neni istaysan?  
Oromimni buzib shodon yuribsan.

Sen uchun nimalar qilardim afsus,  
Ardoqlab odatda, she‘r yozib maxsus.  
Mayliga unutsang roziman albat,  
Ko‘nglingni etolmagan bo‘lsam xushnud.

Manmanlik bilsang xosdir bir shaytonga,  
Bandasi ustunday bo‘lmas dunyoga.  
Bilmam, begonasan Komron Mirzoga,  
Berilib ketgansan kibr-u havoga.

Orzusi unmagan suvdek zilolman,  
Hunarsiz qolgan bir sodda kulolman.  
Ranjigan dunyodan zarra kamolman,  
Qaddu qomat bukilgan alif dolman.



## BUNAQASI BO‘LMAGAN!

Suluv ko‘rdim bir kuni,  
Hali ko‘zim ko‘rmagan.  
Afsonaviy, sodda dil,  
Bunaqasi bo‘lmagan!

Juda go‘zaldir, dilxush,  
Vujuding aylar behush.  
Aqlingdan qilar sarxush,  
Bunaqasi bo‘lmagan!

O‘zi nozik, ta’bi dur,  
Yuzlaridan porlar nur.  
Yaratganga ming shukur,  
Bunaqasi bo‘lmagan!

Bog‘lab olar, shirinso‘z,  
Ohu kabi qaro ko‘z.  
Chehrasi misli oyyuz,  
Bunaqasi bo‘lmagan!

Samimiylik yaxshida,  
Sizlarga ushbu kunda.  
Etdim she’rim baxshida,  
Bunaqasi bo‘lmagan!

She’rim sizga yoqmasa,  
Aqlingiz, mag‘zin chaqmasa.  
Etmang ta’na, daxmaza,  
Bunaqasi bo‘lmagan!

Man Mirzolar Mirzosi,  
She’riyatning gadosi.  
Keching qilgan xatosi,  
Bunaqasi bo‘lmagan!



## YURAGIMNI OLIB SAHROGA BORDIM

Yuragimni olib sahroga bordim,  
“Nega keldik?”,—deya savol berdi u.  
Sevgimni undan yulib uloqtirdim,  
Yig‘lab, xasta yurak asta terdi u.

“Yo‘q, yo‘q”, — dedim, — aslo sevgi kerakmas,  
Endi biz sevamiz soxtalik bilan.  
Yurak der, xo‘rsinib: “Hiyla kerakmas,  
Mayli sev iymon-u soddalik bilan”.

Oh! Nega? Men emas, sen hojadursan?  
Meni hasratga oshno qilodursan!  
Ayt-chi yurak! Na qilsam ko‘nadursan?  
Sevgim otsam sahroga, yonadursan!

Tashlab ketar bevafo yor bildirmay,  
Telba yurak sevar o‘ylab o‘tirmay.  
Meni ham qiynama o‘zing tindirmay,  
Kelaqol yuragim kelgin o‘kinmay.

Bu dunyo to‘ladur vafosiz ishqqa,  
Chin oshiq ko‘rmadim shu kunga kelib.  
Chin sodiq sevgisi hayoti qisqa,  
Ki sen chin sevarsan yuraging berib.

Ey Mirzo, ayb etma xasta yuraging,  
Bir Allohni sevsang bas, sevgin yetar.  
Xudodan so‘ragin nedur tilaging,  
Chidagin, azoblar ham bir kun ketar!



## SOG'INDIM...

To'lganda dilimga hasrat-u g'amlar,  
Unut bo'lar nahot baxtiyor kunlar.  
Aylansin ertakka yolg'on-u chinlar,  
Mayin kulgularing, mehring sog'indim!

Bunchalar qiynaydi hijron firog'i,  
Yetmaydi bilaman yuragim ohi.  
Yo'llaringga mushtoq ko'zim nigohi,  
Shirin lablaringni, bolin sog'indim!

Ba'zan qilganim shu taqdirdan nolish,  
Mahzun qo'shiqlarim etganda xonish.  
Dunyoda kuydirar, olovsiz yonish,  
Jonsiz jasadman-u, jonim sog'indim!

Oyog'ing ostida etsang-da abgor,  
Roziman boringga sendan minnatdor.  
Hanuz lek bo'salar etsada xumor,  
Ki sharob ichmayin, sarxush sog'indim!

Yetti qat osmondan yog'ilsa balo,  
Bilmadim senga bo'ldim muhtalo.  
Qonimdan yurakka beribman jilo,  
Osiyman-u tangridan, dilxush sog'indim!

Mirzoman vaqosiz, bitta lo'ttiboz,  
Qalbimni shaytonlar aylagan e'zoz.  
Haddimdan oshib yozgandim biroz,  
O'zligim yo'qotib, behush sog'indim!



## **BAXTNI BILMADIM!**

Do‘st-u dushmanlarni pulsiz sinadim,  
Hayot sinovlariga so‘zsiz chidadim.  
Qanchalar egdilar sindirmoq uchun,  
Yashadim, o‘lmadim—baxtni bilmadim!

Sevganim qilmadi ayladi jafo,  
Umrdek ekan u asli bevafo.  
Bilmadim tug‘ilib qildimmi xato,  
Yig‘ladim, kulmadim—baxtni bilmadim!

Yo‘limda uchradi turfa jononlar,  
Yuzida kulgu lek ichi ilonlar.  
Azobidan titradi yursam tovonlar,  
Sevmadim, suymadim—baxtni bilmadim!

Kunduzim tun ila almashib gohi,  
Umr o‘tib ketar behuda chog‘i.  
O‘q kabi qadalgan raqib nigohi,  
Kurashdim, yengildim—baxtni bilmadim!

Ba‘zida arazdir, gohida gina,  
Yoshim tinmadi bir zumgagina.  
Bera qol azobing barchasin yana,  
Yashashga keldimu—baxtni bilmadim!

Kunda ming bor o‘lib, ming tirilganda,  
Peshonam qon bo‘lib, tosh urilganda.  
Mirzoning qismati tekshirilganda,  
Yashamay yashadim—baxtni bilmadim!



## MUNDARIJA:

<i>No</i>	<i>2</i>	<i>3</i>
1.	<i>Muallif haqida</i>	4
2.	<i>JAMOLING SOG'INDI BU YURAK...</i>	5
3.	<i>KO'NGLIMNING KO'NGLIDAN QOLIB KETGANSIZ</i>	6
4.	<i>SENSIZ QANDOQ YASHAYMAN</i>	7
5.	<i>SEVGANDA SEVGIMGA ARZIMAGANLAR</i>	8
6.	<i>HAYOT EKANDA</i>	9
7.	<i>SEN MENI MENDEK SEVA OLASANMI?</i>	10
8.	<i>RASHKCHI QIZLARNI SEVMAYMAN ENDI</i>	12
9.	<i>KUYGAN YURAK</i>	14
10.	<i>YETAR BO'LDI, AZOBLAR</i>	15
11.	<i>ISHONGANIM</i>	16
12.	<i>SOG'INAMAN</i>	18
13.	<i>KUMUSHIM, MENING KUMUSHIM</i>	19
14.	<i>QANI ENDI YONIMDA BO'LSANG</i>	20
15.	<i>XAYOLLARDA SUZGIM KELADI</i>	21
16.	<i>KO'ZLARINGDA KO'RDIM O'ZIMNI</i>	22
17.	<i>SEVGI XUMOR SAYLIMI</i>	23
18.	<i>SENI SEVIB QOLDIMMI DEYMAN?!</i>	24
19.	<i>G'ARIBMIZ ISHQ TUFAYLI</i>	25
20.	<i>YIG'LAMA YURAGIM, YIG'LAMA ASLO</i>	26
21.	<i>SEVMOQLIKNI O'RGATIB QO'YGIL</i>	28
22.	<i>SOG'INDIM...</i>	29
23.	<i>TO'YIMNING ILK KECHASI...</i>	30
24.	<i>O'ZINGGA YETMAYDI, O'ZGACHASANDA...</i>	32
25.	<i>CHIN MUHABBAT</i>	33
26.	<i>BAXT QASRINI BIRGA QURAYLIK</i>	34
27.	<i>ORZULARIM ARMON BO'LMASIN</i>	35
28.	<i>ISHQINGNI BILDIMU, ISMING BILMADIM!</i>	37
29.	<i>SENI SOG'INDIM GULIM</i>	38



30.	<b><i>E'TIROZ...</i></b>	39
31.	<b><i>BUNAQASI BO'LMAGAN!</i></b>	40
32.	<b><i>YURAGIMNI OLIB SAHROGA BORDIM</i></b>	41
33.	<b><i>SOG'INDIM...</i></b>	42
34.	<b><i>BAXTNI BILMADIM!</i></b>	43





# OSHIQ QALB

**SHE'RIY TO'PLAM**

Muallif: *Kamronbek Turdiqulov*

Muharrirlar: *Muhammadali Berdiyev*

*Sevarabonu Yunusaliyeva*

*Akbarali Berdiyev*

**Dizaynerchilar:** *Mirakbarjon Hasanov,*

*Muslimabonu Hasanova*

**Sahifalovchilar:** *Fotimabonu Xasanboyeva,*

*Xusanboy Xasanboyev*

2024



**More  
Books!** 



**yes**  
**I want morebooks!**

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**



[info@omniscryptum.com](mailto:info@omniscryptum.com)  
[www.omniscryptum.com](http://www.omniscryptum.com)

OMNIScriptum





# OSHIQ QALB

*"Yuksalish sari — barcha uchun" loyihasi asosida she'riy to'plam holiga keltirildi.*

*Sevgi — eng olib turg'u. Bu tuyg'u insonni ijod qilishga chorlaydi. Bu kitobda Komron Mirxonning qalbidagi jo'sh bergan his tuyg'ular, so'zlar satrlarga ko'chganini ko'ramiz va bunda oshiq qalbning sevgi otashidan chiqqan sadolari tarannum etiladi.*

*Ijodkorimizga ulkan zafarlar va omad tilaymiz!*

*Kitobxonlarimizga bu ijodiy to'plam manzur tushadi degan umiddamiz!*



*Turdiqulov Kamronbek Muxaffar o'g'li  
(Komron Mirzo)*

*Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida 2001-yil 30-martda tavallud topgan. Ayni damda Termiz davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi. Serqirya ijodkor, shoir, hamda bo'lajak o'z kasbining ustasi.*

